

## O'TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” ASARIDA OBRAZLAR TAHLIL

*Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi  
O'KTAMBOYEVA GULI*

### ANNOTATSIYA

Asarda ikki do'stning boshdan kechirganlari yoritib berilgan. Alimardon va Anvar do'st, ammo Alimardonday do'stning boridan yo'g'i yaxshi. Anvarning sevgilisi Muqaddamga Alimardon ko'z olaytiradi. Uni nomusini topdam o'z nikohiga oladi. Anvar esa o'g'zi ochilgancha ularni to'y sadolarini eshitadi. Alimardon qo'shiqchi bo'ladi uning ishlari yurishib ketib, mashxur bo'ladi, ammo bu uzoqqa cho'zilmaydi. Mashhur vaqlari Klara ismli ayol bilan tanishadi va u bilan ayishu Ishrat qiladi, buni xotini muqaddam ko'rib qolib uyiga ketib qoladi, uyga ham sig'magan qiz toqqa chiqib ketib turmish quradi. Bu paytda Alimardon mashulikdan pastga tomon harakatlangandi va ichkiliksiz turolmaydigan bo'ladi. Keyinchalik u hotinini qayerda ekanini bilib qoladi va uni oldiga boradi, og'lini ko'radiyu, ortiga qaytadi, shu vaqtida mashinasi bilan birga avtohalokatga uchraydi.

**Kalit so'zlar.** , do'st, sevgan qizi, ayyor, qishloq, baxtsiz, ona, habar olar, qissa, obraz, farzand

Bahor qaytmaydi- qissasida Alimardon va Anvarning do'stligi va ikkala do'st ham bitta qizni sevib qolganligi tufayli do'stlik degan rishtadan, asar ham qolmaganligi haqidagi hikoya qilingan. Alimardon shunday yigit bo'lgan-ki, u juda ko'plab qizlarni ko'rgan bo'lishiga qaramasdan hech biriga uylanishni hohlamas, edi. Dunyoda eng bebaxo, ammo hamisha benazr tarqatiladigan hazina bor. Bu- ona mehri.

Alimardonning onasi necha yildirki, uni uylantirish ilinjida bo'ladi, lekin ming afsuslar bo'lsinki, onasi uni to'yini ko'rolmasdan olamdan o'tadi.

Anvar – Alimardonning do'sti . Anvarni bu qissada haqiqiy do'st desa bo'ladi. Anvar do'sti betobligida undan habar olar, uni yaqin do'st deb bilib u bilan quvonchini baham ko'radigan, sodda va uyatchang bola edi. Qissada Anvar bilan Alimardon yoshligida polizga qovun o'g'irlashga tushganida Alimardon o'z yaqin do'stini qiyin bir vaziyatga tashlab ketganidan ko'rish mumkin-ki, u faqat o'zini o'ylaydigan bola bo'lgan.

Alimardonning obraziga keladigan bo'lsak, u hudbin, o'zini o'ylaydigan, nafsi jilovlay olmaydiga odam sifatida qarash mumkin. U xattoki o'z do'stini sevganiga ko'z olaytirib, u qizni o'z nafsining qurboni qiladi.

Muqaddam – Anvarning sevgan qizi. Dunyoda mukammal narsa yo'q . Hatto muhabbat deb atalmish oliy tuyg'uda ham adolatsizlik bor. Kim qaqtinqroq sevsu o'sha

iztirob chekadi. Bu qissada sevgidan, do'st xiyonatidan iztibor chekkan jabirdida Anvar bo'ldi.

Shaharda nima gaplar?

Tinchlik - Anvar qızlarnikiga o'xshash timqora ko'zlarını suzib qo'ydi.

Alimardon uning qiziq bir yangilik aytishga og'iz juft-lab turganini sezdi.

Gapiraver! dedi jilmayib. Anvar yalt etib unga qaradi.

- Muqaddam shu yerga - Bo'ston guzaridagi do'xtirxo-naga hamshira bo'lib kelibdi...

Ha, shuning uchun og'zi qulog'ida ekan-da!" Alimardonning ko'nglida yana o'sha chalkash tuyg'u uyg'ondi. Anvar bu qizni yaxshi ko'rishi ko'p gapirar edi. Bu yog'i ham besh bo'libdi... Qiziq, bir xil odamlarning ishi o'z-o'zidan yurishib ketaveradi. Meniki-chi?" Alimardon ichidan xo'rsinib qo'ydi.

Yaxshi! dedi xushchaqchaq gapirishga urinib. Bizni kelinning o'zi davolar ekan-da?

Aytdim unga... Anvar bir shingil uzumni unga tutqazdi. Bugundan boshlab har kuni kelib turadi.

Anvar o'z do'stidan havotir olib, Muqaddamdan har kuni Alimardondan habar olip turishini takidlaydi, vaholangki bu Anvarga qimmatga tushadi.

Muqaddamning obrazida ko'rishimiz mumkin-ki, Alimardon uning nomusini toptaganidan so'ng, Anvarga bo'lган munosabati o'zgaradi. Alimardon qatiyatli aytganini qiladigan, Anvar esa bo'shangligini sezadi. Bu sujetda Muqaddam ko'proq Anvardan kutgan munosabatni Alimardon amalga oshiradi.

Alimardon Muqaddam bilan turmish qurbanidan keyin mashxurlikga erishadi va keyinchalik Alimardon ayolidan ko'ngli soviy boshlaydi. Bu sujetda Muqaddam va Alimardon birga bo'lishi, ammo baxtli emas aksincha baxtsiz bo'lishi tasvirlanadi. Alimardon farzantli bo'lishiga qaramasdan qing'ir – qiyshiq ishlarini davom ettiradi. U o'zi sevib qolib turmish qurban ayoliga Klara isimli ayol bilan xiyonat qiladi. Muqaddam buni bilib qolgach uydan ketadi. Anvarning hayolidan bir kechalik huzur uchun Klarani uyiga olib kelib, xato qilib qo'ygani, endi hammasi tamom bo'lgani chaqmoqday yaraqlab o'tadi.

Muqaddam o'z ota uyiga ham sig'maydi, otasi uyda qolishiga qarshiligi tufayli uydan chiqib ketadi. Shu paytda eng yaqin dugonasi Lobar uni ortidan keladi. Muqaddam ishlash uchun dugonasi bilan qishloqqa butunlayga ketadi. Vaqtlar o'tgach Alimardon o'g'lini sog'ina boshlaydi va Anvarlarnikiga boradi. U yerda Iqbol Xolani ko'radi, Anvar onasiga bo'lib o'tgan ishlarni aytmaganligini sezadi. Alimardon Anvar bilan suxbatlashib Muqaddamlarnikiga borib Muqaddamni olib kelishga qaror qilishadi. Alimardon Anvarga qilgan ishiga qaramasdan, Anvar unga yordam beradi ya'na avvalgidek uni holidan habar ola boshlaydi.

Alimardonga suddan xat kelganda, u faqat bitta maqsadda, o'g'li Shavkatjonni ko'rish ilinjida boradi. Ammo o'g'lini ko'ra olmaydi.

Alimardon ikki qadamcha berida to'xtadi.

Shavkat qani? - dedi u nafasini rostlab ololmay.

Muqaddam unga ma'nosiz qarab qo'ydi.

Uyda, qishloqda...

Qachon ko'raman, qachon?! Alimardon o'zining o'tinch ohangda gapirganini payqab, g'ijinib ketdi. - O'g'-limni berkitishga haqingiz yo'q! - dedi ovozi titrab. - Men uning otasiman.

Muqaddam unga yana ma'nosiz bir nazar tashladi.

- Siz unga ota bo'lolmadingiz! - U keskin burildi-da, bekatga kelib to'xtagan trolleybus tomonga yugurdi

Oradan uch oy o'tgach Muqaddam qishloqda Kabir isimli yigitga turmishga chiqadi . Bu xabarni eshitgach Alimardonning ko'ngli taskin topgandek bo'ladi. Go'yo shu xabarni ko'pdan buyon kutib yurganday edi. Faqat o'sha kundan boshlab ko'nglida tubsiz rash boshlandi. Qalbining eng chuqur yarasi – o'g'li qoldirgan yara chidab bo'lmas azob berib achishib ketdi. U Shavkatni boshqa odamni ota deb chaqirishiga also, chidolmas edi! Vaqtlar o'tgach Alimardon o'g'lini ko'radi va qishloqqa qaytayotganida avaryaga uchraydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alimardon o'z baxtiga o'zi chang soldi. Anvarga hasad ko'zi bilan qarab, kamiga Muqaddamni ham nomusini topdab, unga uylanib uni ham baxtsiz qiladi. Muqaddamga xiyonat qilib, undan uzir so'ragisi kelmasdan, uni oldida bosh egib turamanmi, o'zi kelib qolar , ahir farzandimiz borku deya, hamma narsadan g'ururini ustin qo'yib o'z farzandan ayrıldi. Farzandini ulg'ayishini ko'rish baxtidan maxrum bo'ladi. Anvarga qilgan ishlariga qaramasdan, Anvar unga yordam beradi, ya'na avvalgiday uni holidan habar ola boshlaydi, Bu esa haqiqiy chin do'stning ishidir.

Insonning do'sti ko'p bo'lmaydi , bo'lsa ham ular do'st emas , shunchaki tanish birodarlardir. Inson umri davomida 2-3 do'st topishi mumkin, do'st bu insonning ikkinchi yarimidir. Bu qissada esa Anvar obrazini eng yaxshi do'st timsolida ko'rish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar royxati.**

1. O'. Hoshimov. Bahor qaytmaydi. Qissa. Yangi asr avlodni nashriyoti.T.:2001
2. Rasulov A. Ardoqli adib. O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. Kitob. 2001. "Sharq" nashriyot -matbaa aktsiadorlik kompaniyasi .T.: 2001
3. Sharafiddinov O. O'tkir Hoshimov. Adabiy portret. "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" darsligi. T.: 1999